



JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA FUQAROLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

ALIMOVA FARZONA DILMURODOVNA

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-bosqich 309-
guruh kursanti

Mamlakatimizda huquq-tartibotni mustahkamlash, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlaydigan samarali, ko'p bosqichli profilaktika tizimini yaratishda doimiy e'tibor qaratilmoqda. Profilaktik tadbirlar nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olishda, balki shaxsni jamiyat uchun foydali ishlarni qilishga undaydi, ayniqsa, yoshlarni yuksak ma'naviyatli mustqail va erkin fikrlaydigan, har tomonlama sog'lom, barkamol avlod sifatida voyaga yetkazishda ham g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois mamlakatimizda ushbu masalaga alohida ahamiyat qaratib, huquqbuzarliklarning oldini olish, umuman, bevosita profilaktika bilan bog'lik ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan Respublika hududida jamoat tartibini amalga oshirmoqdalar. "Huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va xizmat faoliyatini takomillashtirish" oyligi doirasida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh



boshqarmasi xodimlari tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida kuchaytirilgan xizmatlar tashkil etmoqda, xizmat davomida huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldini olish va ularga chek qo'yishga qaratilgan tadbirlar vaqtida yo'nalishiga jalb qilingan naryadlar ham o'z xizmat burchlarini astoydil ado etishlari tahsinga sazovordir. Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar hamda tahlillardan kelib chiqib, aytish mumkinki, fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtirokini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni taklif va tavsiya sifatida keltirish mumkin. Shuningdek, ushbu o'ta ma'suliyatli va serqirra faoliyatni tartibga solish, faoliyatga oid huquqiy maydondagi bo'shliq, noaniqlik va ziddiyatlarni bartaraf etish, shuningdek alohida qonun doirasidagi asosiy qoidalarni yagona tizimga solishni ta'minlash maqsadida "Jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki tog'risidagi" qonunning qabul qilinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu qonun loyihasida quyidagi munosabatlarni tartibga solish ta'minlash ham shular jumlasidandir. Aytish joizki, fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki avvalom bor ushbu ishtirokning chora tadbirlarini belgilash, ishtirok etish usullari va hokimiyat hamda aholi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakllarini belgilash muhim hisblanadi. Jamoat tartibini saqlashda fuqarolar ishtirokining amaldagi qonunchilik doirasida huquqiy tartibga solinganligini tahlil qiladigan bo'lsak, bu borada ko'rish mumkinki,



mazkur faoliyat turi qonun darajasoda tartibga solinishini ham ta'minlab beradilar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki , jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatini takomillashtirish doirasida jamoat tartibini saqlashda fuqarolarning ishtiroki mexanizmini joriy etilishi, ko'ngilochar obyektlarda sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni barvaqt oldini olish, jabrlanganlarga tezda yordam ko'rsatish, fuqarolarning qonuni huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish imkonini beradi.